

«TASDIQLAYMAN»

Boshqaruv raisi o‘rinbosari

«Mikrokreditbank» ATB

S. Melibayev



2026-yil «1» 09

TEXNIK TOPSHIRIQ

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarini jalb etish va Bank mutaxassislarini
«Loyihalarni boshqarish (Project Management)» yo'nalishi bo'yicha
o'qitishni tashkil etish uchun

9 varaqda

2026-yil « » dan kuchga kiradi

KIRITILDI:

Strategiya va rivojlanish departamenti direktori

 A. Abdiraxmanov

2026-yil «4» 09

Toshkent, 2026-yil

Mundarija

1. Umumiy ma'lumotlar.....	3
2. Loyihaning maqsadi va vazifalari.....	3
2.1. O'qitish maqsadi.....	3
2.2. O'qitish vazifalari.....	3
3. Loyihani amalga oshirish muddatlari	4
4. Ijrochiga qo'yiladigan talablar	4
5. O'quv dasturiga qo'yiladigan talablar	4
1-modul. Loyihalarni boshqarish asoslari.....	4
2-modul. Loyihaga tashabbus.....	5
3-modul. Loyihani rejalashtirish.....	5
4-modul. Loyihani amalga oshirish.....	5
5-modul. Monitoring va nazorat	5
6-modul. Loyihani yakunlash	5
7-modul. Agile Project Management	5
8-modul. PMI sertifikatsiyasiga tayyorlash	5
5.2. O'quv dasturiga qo'yiladigan qo'shimcha talablar	6
5.3. Amaliy tayyorgarlik	6
5.4. O'qituvchilarga qo'yiladigan talablar	6
5.5. O'quv materiallariga qo'yiladigan talablar	7
5.6. Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladigan talablar	7
5.7. Sertifikatlarga qo'yiladigan talablar	7
5.8. O'qitishni tashkil etishga qo'yiladigan talablar	7
6. Amaliy qism	8
7. O'qituvchilarga qo'yiladigan talablar	8
8. Kutilayotgan natijalar.....	8
9. Hisobot hujjatlari	8
10. Qabul qilish mezonlari	9
11. Xizmatlarni nazorat qilish va qabul qilish tartibi	9

1. Umumiy ma'lumotlar

Mazkur Texnik topshiriq ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarini jalb etish va Bank xodimlarini «Loyihalarni boshqarish (Project Management)» yo'nalishi bo'yicha o'qitishni tashkil etish uchun ishlab chiqilgan.

1.1. Xizmatning to'liq nomi

«Mikrokreditbank» ATB xodimlarini Project Management Institute (PMI) xalqaro standartlariga muvofiq loyihalarni boshqarishning zamonaviy metodologiyalariga o'qitish xizmatlarini ko'rsatish.

Xizmatning qisqa nomi:

«Loyiha boshqaruvi bo'yicha o'qitish» (xizmat)

1.2. Tomonlarning nomlari:

Buyurtmachi:

Buyurtmachi: «Mikrokreditbank» aksiyadorlik-tijorat banki (keyingi o'rinlarda — Bank).

MFO: 00433

STIR: 200547792

Indeks: 100047, XXTUT: 96120

KTUT: 15142540

SWIFT: MICDUZ22

Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shoh ko'chasi, 4-uy.

Telefon: 1285, +998 55 503-63-63

Bank veb-sayti: <https://mkbank.uz>

Elektron pochta manzili: office@mkb.uzoffice@mkb.uz

Mas'ul shaxs: A. Abdiraxmanov

Ijrochi:

Tanlov natijalari asosida aniqlanadi.

2. Loyihaning maqsadi va vazifalari

2.1. O'qitish maqsadi

Bank xodimlarining loyihalarni boshqarish sohasidagi kasbiy malakasini oshirish, loyihalarni rejalashtirish, bajarish, monitoring qilish va yakunlashning zamonaviy vositalarini joriy etish, shuningdek, mutaxassislarni PMI xalqaro sertifikatlashtirishiga (CAPM/PMP) tayyorlash hamda olingan bilim va ko'nikmalarni Bankdagi ish faoliyatida qo'llash.

2.2. O'qitish vazifalari

O'qitish doirasida Ijrochi tinglovchilarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishi lozim:

- PMI xalqaro standartlarini qo'llash;

- Waterfall/Predictive, Agile va Hybrid yondashuvlaridan foydalangan holda loyihalarni boshqarish;
- loyiha mazmunini boshqarish;
- muddatlarni boshqarish;
- xarajatlarni boshqarish;
- sifatni boshqarish;
- loyiha resurslarini boshqarish;
- loyiha jamoasi va kommunikatsiyalarni boshqarish;
- manfaatdor tomonlarni boshqarish;
- risklarni boshqarish;
- xaridlarni boshqarish;
- loyiha hujjatlarini ishlab chiqish;
- loyihalarni boshqarishning zamonaviy vositalaridan foydalanish;
- PMI xalqaro sertifikatlashtirishga tayyorlanish.

3. Loyihani amalga oshirish muddatlari

O'qitish davomiyligi tayyorlash dasturi bilan belgilanadi.

Tavsiya etiladigan parametrlar:

- kurs davomiyligi — kamida 35 akademik soat;
- tinglovchilar soni — 10 nafargacha;
- o'qitish tili — rus yoki ingliz tili;
- o'qitish shakli — kunduzgi (Bank bosh ofisida), masofaviy yoki gibrid;
- o'tkazish joyi — Toshkent shahri yoki onlayn.

4. Ijrochiga qo'yiladigan talablar

Ijrochi quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun amaldagi litsenziyaga ega bo'lishi;
- korporativ mijozlarni o'qitish bo'yicha kamida 3 yillik tajribaga ega bo'lishi;
- PMI xalqaro standartlariga muvofiq o'quv dasturini taqdim etishi;
- o'qitishni PMP sertifikatiga ega trenerlar yoki PMI vakolatli o'quv markazlari instruktorlari tomonidan o'tkazilishini ta'minlashi;
- har bir ishtirokchini o'quv materiallari bilan ta'minlashi;
- amaliy mashg'ulotlar va real keyslar tahlilini tashkil etishi;
- yakuniy test sinovini o'tkazishi;
- o'qishni muvaffaqiyatli tamomlaganlik to'g'risida sertifikatlar berishi.

5. O'quv dasturiga qo'yiladigan talablar

Dastur quyidagi bo'limlarni o'z ichiga olishi lozim.

1-modul. Loyihalarni boshqarish asoslari

- loyiha tushunchasi;
- loyihaning hayotiy sikli;
- ishtirokchilarning rollari;
- tashkiliy tuzilmalar;
- loyiha ofisi (PMO).

2-modul. Loyihaga tashabbus

- Business Case ishlab chiqish;
- Project Charter;
- manfaatdor tomonlarni aniqlash;
- loyiha maqsadlarini belgilash.

3-modul. Loyihani rejalashtirish

- WBS — loyihani amalga oshirishning batafsil rejasi;
- kalendar reja;
- kritik yoʻl;
- loyiha budjeti;
- resurslarni taqsimlash;
- kommunikatsiya rejasi;
- risklarni boshqarish;
- sifatni boshqarish.

4-modul. Loyihani amalga oshirish

- jamoaga rahbarlik qilish;
- yetakchilik;
- motivatsiya;
- nizolarni boshqarish;
- manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish.

5-modul. Monitoring va nazorat

- muddatlarni nazorat qilish;
- budjetni nazorat qilish;
- loyiha va loyiha jamoasi aʼzolarining KPI koʻrsatkichlari;
- oʻzgarishlarni boshqarish;
- risklarni boshqarish;
- hisobot berish.

6-modul. Loyihani yakunlash

- natijalarni qabul qilish;
- Lessons Learned;
- shartnomalarni yopish;
- hujjatlarni arxivlash.

7-modul. Agile Project Management

- Agile Manifesto;
- Scrum;
- Kanban;
- Hybrid Project Management;
- moslashuvchan rejalashtirish.

8-modul. PMI sertifikatligiga tayyorlash

- imtihon tuzilishi;

- namunaviy savollarni tahlil qilish;
- sinov testini o'tkazish;
- tayyorgarlik bo'yicha tavsiyalar.

5.2. O'quv dasturiga qo'yiladigan qo'shimcha talablar

O'quv dasturi quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- o'qitish Project Management Institute (PMI)ning amaldagi xalqaro standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lishi;
- kurs mazmuni PMBOK® Guide (7th Edition) va Process Groups: A Practice Guide talablariga muvofiq bo'lishi;
- dastur PMP imtihonining uchta asosiy domenini qamrab olishi;
 - People (insonlarni boshqarish);
 - Process (loyihalarni boshqarish jarayonlari);
 - Business Environment (loyihaning biznes muhiti);
- o'qitish loyihalarni boshqarishning quyidagi zamonaviy yondashuvlarini o'z ichiga olishi;
 - Predictive (Waterfall);
 - Agile;
 - Hybrid;
- kurs tinglovchilar toifasiga qarab PMP® yoki CAPM® xalqaro sertifikatlashtirishiga tayyorlashni nazarda tutishi;
- o'qitishning umumiy hajmi PMP imtihoniga kirish uchun PMI talablariga muvofiq kamida 35 akademik (kontakt) soatni tashkil etishi;
- dastur imtihon savollarini tahlil qilish va sinov testini o'tkazishni o'z ichiga olishi;
- o'qitish vaqtining kamida 40 foizi amaliy mashg'ulotlarga ajratilishi.

5.3. Amaliy tayyorgarlik

Ijrochi ishtirokchilar tomonidan quyidagi amaliy ishlar bajarilishini ta'minlashi lozim:

- Loyiha ustavini (Project Charter) ishlab chiqish;
- manfaatdor tomonlarni aniqlash (Stakeholder Register);
- ishlarni dekompozitsiya qilish tuzilmasini (WBS) ishlab chiqish;
- loyihaning kalendar rejasini tayyorlash;
- Gantt diagrammasini tuzish;
- mas'uliyatni taqsimlash matritsasini (RACI) ishlab chiqish;
- risklarni boshqarish rejasini tayyorlash;
- risklarning sifat tahlilini o'tkazish;
- kommunikatsiya rejasini ishlab chiqish;
- loyiha budjetini ishlab chiqish;
- o'zgarishlar reyestrini tayyorlash;
- o'zlashtirilgan qiymat tahlilini (Earned Value Management) o'tkazish;
- loyiha bo'yicha yakuniy hisobotni tayyorlash;
- yakuniy loyihani himoya qilish.

5.4. O'qituvchilarga qo'yiladigan talablar

Ijrochi quyidagi talablarga javob beradigan o'qituvchilar tomonidan o'qitish o'tkazilishini ta'minlashi lozim:

- Project Management Professional (PMP®) xalqaro sertifikatini yoki unga tenglashtirilgan xalqaro sertifikatga ega bo'lish;
- loyihalarni amaliy boshqarish bo'yicha kamida 5 yillik tajribaga ega bo'lish;
- korporativ o'qitish bo'yicha kamida 3 yillik tajribaga ega bo'lish;
- moliya yoki bank sektorida loyihalarni amalga oshirish tajribasi ustunlik hisoblanadi;
- tinglovchilarni PMI xalqaro sertifikatsiyasiga tayyorlash tajribasiga ega bo'lish.

5.5. O'quv materiallariga qo'yiladigan talablar

Ijrochi har bir tinglovchiga quyidagilarni taqdim etishi shart:

- elektron shakldagi o'quv materiallari to'plami;
- loyiha hujjatlari shablonlari;
- amaliy keyslar;
- taqdimot materiallari;
- imtihon testlari;
- PMI imtihoniga mustaqil tayyorlanish bo'yicha tavsiyalar;
- kurs yakunlanganidan keyin kamida 6 oy davomida o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyati.

5.6. Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladigan talablar

O'qitish yakunida Ijrochi quyidagilarni amalga oshiradi:

- oraliq test sinovi;
- yakuniy test sinovi;
- loyihani amaliy himoya qilish;
- dasturni o'zlashtirish darajasini individual baholash;
- o'qishni muvaffaqiyatli tamomlagan ishtirokchilarga sertifikatlar berish.

5.7. Sertifikatlarga qo'yiladigan talablar

O'qitish yakunida Ijrochi quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan sertifikatni taqdim etadi:

- tinglovchining F.I.Sh.;
- kurs nomi;
- akademik soatlarda o'qitish davomiyligi;
- o'rganilgan modullar ro'yxati;
- o'qitish yakunlangan sana;
- vakolatli shaxsning imzosi va tashkilot muhri (mavjud bo'lsa).

Agar dastur PMI talablariga muvofiq bo'lsa, sertifikat PMP xalqaro sertifikatsiyasiga ariza topshirish uchun zarur bo'lgan Contact Hours (Professional Development Hours) miqdorini tasdiqlashi lozim.

5.8. O'qitishni tashkil etishga qo'yiladigan talablar

Ijrochi quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- o'qitishni Buyurtmachi belgilagan manzil va xonada, bevosita Bank binosida o'tkazish;
- masofadan ulanish imkoniyati;
- mashg'ulotlarni yozib olish (onlayn shaklda);

- interaktiv amaliy mashg'ulotlar o'tkazish;
- bank amaliyotidan olingan real keyslardan foydalanish;
- butun o'qitish davri davomida o'qituvchilarning maslahatlarini taqdim etish;
- ishtirokchilarni texnik qo'llab-quvvatlash.

6. Amaliy qism

Ijrochi quyidagilarni nazarda tutishi lozim:

- amaliy topshiriqlarni bajarish;
- loyihaning to'liq rejasini ishlab chiqish;
- risklarni tahlil qilish;
- Project Charter tuzish;
- WBS ishlab chiqish;
- Gantt diagrammasini tuzish;
- manfaatdor tomonlar matritsasini ishlab chiqish;
- kommunikatsiya rejasini tayyorlash;
- yakuniy loyihani himoya qilish.

7. O'qituvchilarga qo'yiladigan talablar

O'qituvchi(lar) quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- PMP xalqaro sertifikatiga ega bo'lish;
- yirik loyihalarni boshqarish tajribasiga ega bo'lish;
- kamida 5 yillik o'qituvchilik tajribasiga ega bo'lish;
- bank sektorida loyihalarni amalga oshirish tajribasiga ega bo'lishi maqsadga muvofiq.

8. Kutilayotgan natijalar

O'qitish yakuniga ko'ra xodimlar quyidagilarni bajara olishlari lozim:

- loyihalarni boshlash;
- loyiha hujjatlarini ishlab chiqish;
- muddatlar va budjetni rejalashtirish;
- loyiha jamoasini boshqarish;
- Agile va Predictive yondashuvlarini qo'llash;
- risklarni boshqarish;
- loyihalarning amalga oshirilishini nazorat qilish;
- shuningdek, PMI xalqaro sertifikatsiyasiga tayyor bo'lish.

9. Hisobot hujjatlari

O'qitish yakunlangach, Ijrochi quyidagilarni taqdim etadi:

- o'quv dasturi;
- o'quv materiallari;
- davomat jurnali;
- yakuniy test natijalari;
- ishtirokchilar sertifikatlari;
- o'qitish o'tkazilganligi to'g'risidagi yakuniy hisobot.

10. Qabul qilish mezonlari

Xizmat quyidagi shartlar bajarilganda ko'rsatilgan deb hisoblanadi:

- to'liq o'quv kursining o'tkazilishi;
- o'quv dasturining to'liq hajmda bajarilishi;
- ishtirokchilar tomonidan yakuniy test sinovining muvaffaqiyatli topshirilishi;
- sertifikatlarning berilishi;
- ko'rsatilgan xizmatlar dalolatnomasining imzolanishi.

11. Xizmatlarni nazorat qilish va qabul qilish tartibi

Tomonlar xizmatlarni ko'rsatish va qabul qilish rejasini kelishib oladilar. Alohida bosqichlar va ishlar to'liq yakunlangach, Pudratchi Buyurtmachiga bosqichlar dalolatnomalarini hamda topshirish-qabul qilish dalolatnomalarini taqdim etadi.

Ishlarni bajarish jarayonida tomonlar tomonidan aks ettirilmagan (yoki yetarli darajada aks ettirilmagan) muayyan masalalar va yechimlarni ko'rib chiqish hamda kelishish zarur bo'lganda, Ijrochi va Buyurtmachi «Qo'shimcha texnik topshiriq» hujjatini ishlab chiqishlari, kelishishlari va imzolashlari mumkin.

Buyurtmachi o'quv dasturi davomida loyihaning samarali amalga oshirilishini kuzatish huquqiga ega. Buyurtmachi Ijrochidan ishtirokchilarning davomati va o'zlashtirishi haqida ma'lumot so'rashi mumkin.

Kiritildi:


Strategiya va rivojlanish departamentining yetakchi mutaxassisi



G. Begzodova

Kelishildi:

Strategiya va rivojlanish departamenti guruh rahbari



O. Zelentsova